



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGINING KASBIY KOMPETENTLIGI.

Tashxanova Sevara Qobuljanovna

Toshkent pedagogika kolleji «Maxsus fanlar» kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi pedagogining kasbiy kompetentligi, mahorati asosida bolalarni rivojlantirish, Kompetentsiyalar va kompetentlik tushunchalarini farqlash, tarbiyachi malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etishi orqali bolalarni har tamonlama rivojlantirish, kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi komponentlar, ta'limi jarayonning qiziqarli bo'lishini ta'minlovchi omillar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kompetentsiyalar va kompetentlik, shaxsiy sifatlar, malaka ko'nikma, bilim dunyoqarash, kasbiy sifatlar, shaxsiy sifatlar, kasbiy kompetentlik, komponentlar, Shaxsiy kompetentsiya maxsus (yoki kasbiy) kompetentsiya, ekstremal kompetentsiya, psixologik, metodik, informatsion, kreativ, kommunikativ, innovatsion kompetentsiya, pedagogik mahorat, mobil pedagog, ruhiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-nazariy, tadqiqotchilik, kashfiyotchilik, yakka tartibda ishslash.

«Ta'lif tarbiyaning eng muhim omili bu pedagog-tarbiyachining tafakkuridir»

A. Distervg

- Ta'lif olish jarayonini takomillashtirish asosan tarbiyachi muhim rol o'ynaydi;
- Tarbiyachi qachon tarbiyachi bo'lishi mumkin, qachonki u doimo ishlab, izlanishni davom etsa.

Eng muhimi tarbiyachida ishonchli va aniq bilim, mahorat, san'at oltin qo'llar, ishlashga doimo tayyorgarlik, aniq fikr, o'quv jarayonni bilish, tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishdan iborat.

A. S. Makarenkoning bu so'zlarini eslamasak bo'lmas.

Kompetentsiyalar – bu talablardir.

Kompetentlik – ushbu talablar bajarilishining namoyonidir.

Lug'aviy jihatdan kompetentsiya inglizcha “competence” tushunchasi “qobiliyat”ma’nosini ifodalaydi.

Mazmunan “kompetentlik” tushunchasi “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajada kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish” deb talqin etiladi.

Kompetentlik bu- shaxsning tanlagan kasbi bo'yicha egallagan bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni amaliyatga qo'llay olishi qobiliyati, layoqati va kasbiy muammolarni mustaqil hal qila olishidir.

- Kasbiy kompetentlik haqida zamonaviy tushuncha
- Shaxsiy sifatlar
- Malaka
- Ko'nikma
- Bilim



- Dunyoqarash
- Kasbiy pedagogik kompetentlik
- Kasbiy sifatlar: BILIM, MALAKA, TAJRIBA
- Shaxsiy sifatlar: Samimiylik, bolajonligi, adolatparvarlik, mehribonlik, xayrihoxlik, maslahatgo'ylik, talabchanlik....

KASBIY KOMPETENTLIK-XABARDORLIK, obro', vakolat, biron narsani hukm qilish uchun bilim, har tomonlama bilimga ega bo'lgan shaxsnинг sifati, kasbiy faoliyatining mohiyatini tashkil etadigan funksional vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat va shaxsiy fazilatlarning tizimli namoyon bo'lisdigidir.

### **KASBIY KOMPETENTLIK QACHON NAMOYON BO'LADI?**

- Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:
- murakkab jarayonlarda;
  - noaniq vazifalarni bajarishda;
  - bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
  - kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda

### **KASBIY KOMPETENTLIKKA EGA BO'LGAN TARBIYachi**

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

### **PEDAGOG-TARBIYACHIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING QAYSI AKS ETUVCHI SIFATLARI (komponentlar) EGA BO'LISHI KERAK?**

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi komponentlar:

- Shaxsiy kompetentsiya
- Maxsus (yoki kasbiy) kompetentsiya
- Ekstremal kompetentsiya
- Psixologik,
- Metodik,
- Informatsion,
- Kreativ,
- Kommunikativ,
- Innovatsion kompetentsiya
- Hayotning va mehnatning o'zgaruvchan sharoitiga tez moslashuvchanlik hamda kasbiy faoliyatidagi murakkab muammolarni hal qilish kompetentsiya

Shaxsiy kompetentsiya – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

- Mehnatsevarlik;  
Mehribonlik va sabrlilik;  
Yuqori ahloqiy fazilatlar;



Yuksak darajada rivojlangan madaniyat.

Maxsus kompetentsiya-

Pedagog-tarbiyachi o'zining mutaxassisligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani yetarli darajada egallagan bo'lishi, kasbiy amallarni to'g'ri va aniq bajara olishi, soxaga oid yangi texnika va texnologiyalarni tez o'zlashtira olishi, mexnat va texnika xavfsizligi qoidalaridan xabardor bo'lishi talab etiladi. Kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga puxta tayyorgarlik ko'rishi, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish; faoliyati natijalarini real taxlil qilish va baholash. Ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Ekstremal kompetentsiya – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik;

Hayot xavfsizligi asoslari va birinchi yordam ko'rsata olish;

Nizoli vaziyatlarni oldini olish.

Psixologik kompetentsiya – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, bolalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

Psixologik kompetentsiya

Rivojlanish psixologiyasini bilishi;

har bir tarbiyalanuvchiga individual yondasha olishi;

Keng eridutsiyasi, intelekti va intuitsiyasi.

Metodik kompetentlik – ta'lim tarbiya jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

Bolalarni o'qitish va tarbiyalash sohasida zamонавиу usul va texnologiyalarga egalik qilish qilish;

Maktabgacha ta'limni tashkil etish tamoyillari va mazmunini bilish;

Pedagogik bilim;

Tashkilotchilik qobiliyati.

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinali, samarali foydalanish;

Mul'timedia texnologiyalarni yarata olishi;

AKT foydalana olish ko'nikmasi va uni ta'lim tarbiya jarayonga qo'llay olish layoqati.

Kreativ kompetentsiya – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

Kreativ kompetentsiya

Bolalarning qaror qabul qilishi, his-tuyg'ulari va fikrlarini ifoda etishi uchun sharoit yaratish qobiliyati;

Har bir mashg'ulot davomida ijodkor, izlanuvchan bo'lishi;



Ijodiy qobiliyat

Kommunikativ kompetentsiya – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, bolalar bilan samimiy muloqotda bo’lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko’rsata olish.

Kommunikativ kompetentsiya

Har bir bola bilan muloqot qilish qobiliyati;

Har bir bolaga, uning his-tuyg’ulari va ehtiyojlariga hurmat bilan munosabatda bo’lish; Etika va estetikasi.

Innovatsion kompetentsiya – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g’oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

Maktabgacha pedagogikada innovatsion texnologiyalarni qo’llay olishi;

Bolalar faoliyatini, hamkorlikdagi faoliyat ishtirokchilarni erkin tanlashlari uchun sharoit yaratish qobiliyati;

Bolalarni o’qitish va rivojlantirish usularini bilishi va qo’llay olishi;

Hayotning va mehnatning o’zgaruvchan sharoitiga tez moslashuvchanlik hamda kasbiy faoliyatidagi murakkab muammolarni hal qilish kompetentsiya-

Pedagog-tarbiyachining innovatsion sharoitga tezda moslashuvchan, mobil pedagog singari, har qanday yangi sharoitga o’z o’rnini topishi, hayotning va mehnatning o’zgaruvchan holatda muvaffaqiyatli va talabchan bo’lishi uchun har qanday o’zgarishga tayyor bo’lishi, yangi shartlarga tez va samarali moslasha olishi ko’nikmalaridir. Uning turli xil vaziyatlarga tayyor bo’lishi, vaziyatning mohiyatni va mazmunini anglab yetishi, o’z nuqtai nazarini bemalol fikr yurita olishi, o’z pozitsiyasiga ega ekanligi, gnostik qobiliyat mavjudligi ya’ni oldindan ko’ra bilish va shu masalalar bo’yicha darhol qarorlar qabul qila olish qobiliyatidir.

Shuningdek darhol vaziyatni va o’z imkoniyatlarni baholash, ya’ni vaziyatni tushunib, ularga to’g’ri yechim yo’llarini topib, vaziyatga o’z imkoniyatlardan kelib chiqib baholash berish, shu bilan birlgilikda o’z imkoniyatlarga baho berishga qodir bo’lishi lozim.

Tarbiyachining pedagogik faoliyati individualdir. Hammasi ham va darhol usta bo’la olmaydi. Ba’zilar uni ko’p yillar davomida shakllantirishga urinadilar. Afsuski, ayrim tarbiyachilar bu toifada shunday bo’lib qoladilar.

Ijodkor tarbiyachi, kreativ tarbiyachi va mahoratli tarbiyachi bo’lish uchun pegogik jarayonning qonunlari va o’zlashtirish kerak.

MAHORAT – biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at.

Pedagogik mahorat – bu shunday yuksak va muntazam takomillashtib boruvchi ta’lim va tarbiya san’atidirki, uni tarbiyachilik kasbiga layoqati bo’lgan, bolalarni sevgan har bir tarbiyachi egallashi mumkin.

Tarbiyachining kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo’nalishlarida olib boradi:

1.Tarbyachining shaxsiy fazilatlar bo’yicha tayyorgarligi.

2.Tarbyachining ruhiy-psixologik tayyorgarligi.

3.Tarbyachining ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligi.



4.Tarbiyachining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida tarbiyachining:

- nutq, malakalarini, ya'ni savodli gapirish,
- o'z nutqini chiroyligi va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish,
- o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash.

-O'z predmetini qiziqarli tashkil etish.

-Ta'limi jarayonlarda turli xil faoliyat shakllaridan foydalanish.

-Muammoli o'qitishni tashkil etish.

-Ijodiy faoliyatni tashkil etish.

-Bolalarning mustaqil ishlarini tashkil etish.

-Teskari aloqani o'rnatish.

-Mustaqil topshiriqlar berish.

Ta'limi jarayonning qiziqarli bo'lishini ta'minlovchi omillar:

- Bolalarni mustaqil tadqiqotchilik, kashfiyotchilik faoliyatiga, muammoli masalalarni yechishga jalgan etish.

• O'quv faoliyatini turli ko'rinishlarda tashkil etish.

• O'quv predmetining muhimligini, kerakligini anglatish.

• Yangi o'quv materialining oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'liqligi.

• Topshiriqlarning qiyin, ammo bolaning kuchi yetadigan qilib tanlanishi.

- Bolaning ishi qanchalik tez-tez kuzatilib baholab borilsa, uning qiziqishi ham shuncha ortib boradi.

Xulosa: Pedagog tarbiyachi ta'lim jarayonida barcha bolalarni etibor bilan qamrab olish, bola shaxsini hurmat qilish, bolani xarakterini, qobiliyat va fazilatlarini aniqlash uchun uni barcha faoliyat turlariga jalgan qilish, bolaning o'zlashtirishiga qarab yakka ishslashni puxta rejalashtirish, bolaning natijalarini chuqur taxlil va doimiy nazorat qilish, bola bilan yakka tartibda ishslashni rejalashtirishda bolaning aqliy va individual xususiyatlarini hisobga olish darkor.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Meliyy X, Jamoldinova O, Risqulova K "Tarbiyachining kasbiy kompitenti va mahorati" Toshkent 2021 y.

2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – Toshkent.2020y.

3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. -T.: "O'z.mil.entsiklopediyasi"

Davlat ilmiy nashr. 2006. 575-b.)

4. Grosheva I.V., Olimov K.T., Nazarova V.A, Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A."Kuzatish va baholash" Toshkent.2020 yil.

5. Shin A.V, Mirziyoeva Sh.Sh., Grosheva I.V. Mikaylova U.T., Suleymanova Yu.T.,Vlasova Ye.N., Galimova Ye.F. "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish". Toshkent.2020 yil.



6. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Djanpeisova G.E. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan) maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun. Toshkent 2022 y.